

Konfliktning ijtimoiy roli va funksiyalari

O‘ng‘arov Fayzullo To‘lqin o‘g‘li

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi talabasi; e-mail: ongarovfayzullo@gmail.com

Maxmudova Gulnora

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi talabasi; e-mail: maxmudovagulnora93@gmail.com

Ilmiy raxbar: Abbosova Maftuna Subxonovna

*Raqamli tehnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasи o‘qituvchisi, P.H.D
e-mail: maftuna08011993@gmail.com*

Annotatsiya: Ushu maqolada jamiyatimizda insonlar orasidagi konfliktlar, konfliktlarning ijtimoiy hayotimizdagi ahamiyati va kundalik hayotimizdagi konfliktlar, shuningdek, konfliktlar kelib chiqish sabablar va uni hal qilish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Konflikt, nizo, ijtimoiy, shaxs, funksiya, jamiyat, yoshlar.

Kirish.

Jamiyatdagi konfliktlarni chetdan ko`rinishiga qarab, oddiy bir so‘z bilan u yoki bu konflikt deb izohlab qo`yish mumkin. Biroq o`sha konfliktni bartaraf etish yoki nazariy- tahliliy jihatdan o`rganish jarayonida uning naqadar serqirra ekanligiga amin bo`lamiz. Konfliktlar tabiatining ana shunday ko`p qirrali xususiyatiga ega ekanligi uni tahliliy jihatdan o`qib o`rganishda ham ma`lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi tabiiy holdir. Konfliktlar tabiatini bilish har bir inson uchun o`ta muhimdir. Zero, hech bir insonning hayot soniyalari qarama-qarshiliklarsiz bo`lmaydi. Bu hayot qonuniyatidir.

Asosiy qism.

Biz konfliktlarni kundalik hayotimizda deyarli har kuni uchratamiz. Konfliktlar uyda, maktabda, ko`chada, o`quvchilar orasida, tinglovchi va o`qituvchilar, yoshi kattalar va yoshlar o`rtasida, jamoa a`zolari o`rtasida paydo

bo`lishi mumkin. Konflikt tabiiy hodisadir. Konflikt- oddiy hol. U har kuni biz bilan hamroh va hayotimizga tegishlidir. Konfliktlar, odatda, ko`p vaqtlar odamlar birga bo`ladigan hollarda, ya`ni uzoq muddat bir-birlari bilan psixologik va ruhiy muloqotda bo`ladigan hollarda, ular ma`lum muddat o`zaro birga bo`lishga majbur bo`lgan paytlarda ko`proq sodir bo`ladi.¹

Konflikt o`zi nima? “Konflikt” atamasi “Nizo” tushunchasining dastlabki ekvivalenti sanaladi. Bu fan o`rganuvchi ob`ektlar nimalardan iborat? Konfliktlarni kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini o`rganuvchi fan “**Konfliktologiya**” bo`lib, u lotincha “**conflictus**” – **to`qnashuv**, “**logiya**” – **ta`limot** demakdir. Demak, to`qnashuv haqida ta`lim berish, ya`ni to`qnashuv haqidagi fan hisoblanadi.

Konfliktologiya- jamiyatdagi ijtimoiy konfliktlar dinamikasi, ularning sabablari, shuningdek, konfliktlar tipologiyasi formalarini hamda konfliktlarni bartaraf etishning nazariy ilmiy asoslarini tadqiq etuvchi fan.

Konfliktologiyaning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Hattoki Konfutsiy ham o`z so`zlarida g`azab va takabburlik va ular bilan to`qnashuvlar odamlarning tengsizligi va bir-biriga o`xshamasligini keltirib chiqaradi, deb ta`kidlangan. U: “Kambag`alning o`zida g`araz bo`lmasligi qiyin, boyning kibrli bo`lmasligi oson”.²

Ijtimoiy konfliktlar hayotimizda real voqelikka aylandi. Kishilar konfliktlar bilan tinimsiz kurash olib boradilar, lekin ular haligacha ijjobiy tomonga hal etilmay, balki ortib bormoqda. Kishilik jamiyatida konfliktlar: yakka va guruhiy, etnik, davlatlararo darajalarda yuz beradi. Ijtimoiy konfliktning o`ziga xosligi shundaki, shu sanab o`tilgan darjalarning har birida u yoki bu huquqiy normalarni bajarish (tadbiq etish) yoki bo`zish va tegishlicha jismoniy va ijtimoiy shaxslar o`rtasida huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o`zgarishi va tugatilishi bilan bog`liq.

¹ J.S. Quchqorov. Konfliktologiya. O`quv qo`llanma, “Durdon” nashriyoti Buxoro-2023. 10-b.

² . Konfutsiy. Suhbatlar va hukmlar. – Sankt – Peterburg: Kristal, 2001-y. 67- bet.

Konflikt – o`zaro qarama-qarshi bo`lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to`qnashuvidir.

Konfliktning yechimini topish – konfliktli vaziyatni yo`qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to`g`ri yo`lga solish bilimlari va ko`nikmalari majmuidan iboratdir³.

Konfliktning ijtimoiy hayotimizga ta`sir ijamiyat va inson hayotining barcha sohalarida kuzatiladi. Ijtimoiy konfliktlar konfliktologiyaning markaziy obyekti ya`ni yadrosi hisoblanib, u esa shaxslararo konfliklar hisoblanadi.⁴

Ijtimoiy konflikt sabablari:

- 1) moddiy resurslar;
- 2) o`ta muhim hayotiy ko`rsatma(ustanovka)lar;
- 3) hokimiyat vakolatlari;
- 4) ijtimoiy tuzilmadagi maqom-vazifaga oid farqlar;
- 5) shaxsga doir (emotsional-psixologik) farqlar va h.k.

Ijtimoiy hayotning tashkil etilganlik darajasiga ko`ra konflikt turlari:

- 1) global;
- 2) mintaqaviy;
- 3) davlatlararo;
- 4) elatlararo;
- 5) sinflararo yoki jamiyatning turli tabaqalari o`rtasida;
- 6) guruhlararo;
- 7) partiyalararo;
- 8) shaxslararo siyosiy, mafkuraviy, ma`naviy.

Konfliktning ijtimoiy hayotga ta`siri jamiyat va inson hayotining barcha sohalarida kuzatilishini oydinlashitirib aytadigan bo`lsak unga funksiya tushunchasini kiritishimiz lozim. Bu tushuncha bir tomondan jamiyat hayotida ijtimoiy konfliktning umumiyligi ahaliyatini, boshqa tomondan esa, ijtimoiy konflikt bilan ijtimoiy hayotning boshqa jihatlari (komponentlari) o`rtasidagi

³ Karina V. Korostelina and Simone Lassig. Historiy Education and Post- Conflikt Reconciliation. USA Canada.Routledge, 2013.

⁴“Pedagogik Konfliktologiya” O`quv-Uslubiy Majmua. Namangan- 2023. 10-b.

bog`liqlikni ifodalaydi. Funksiya deganda konfliktli munosabatlar ijtimoiy oqibatlarining muayyan majmui tushuniladi. Konflikt funksiyalarini ijtimoiy hayotning ikki asosiy sohasiga qarab ikkita katta guruhga bo`lish mumkin: **moddiy** va **ma`naviy**. Moddiy funksiyalar har tadqiqotchi konfliktlar, shu jumladan ijtimoiy konfliktlar ham asosan ijtimoiy hayotning iqtisodiy tomonlari bilan bog`lik bo`lganlari bois namoyon bo`ladilar. Bu bog`liqlik moddiy manfaatlarda, foyda ko`rishda, shuningdek ijtimoiy yo`qotishlarda, zarar ko`rishlarda ifodalanadi. Moddiy funksiyalar faqatgina konfliktning halokatli oqibatlarida namoyon bo`lmaydi. Ba`zida ular yaratuvchilik mazmuniga ham ega bo`ladilar. Konflikt jarayonida taraflardan biri konflikt boshlanguniga qadar o`z tasarrufida bo`lgan moddiy qiymatlarni qo`lga kiritishi mumkin. Boshqa tomonidan, konflikt moddiy ishlab chiqarishni rivojlanishida umumiyligida yuksalishga olib keluvchi ijtimoiy kuchlarning qayta taqsimlanishiga yordam qilishi mumkin.

Konfliktlarning jamiyat ma`naviy hayotiga ta`siri beqiyosdir. Bu yerda konfliktlar ma`naviy sohada tub va tez sodir bo`ladigan o`zgarishlarning rag`batlantiruvchi vositasi rolini o`ynashi mumkin. Ular hodisalarga odatda bir tomonlama baho berish jarayonini to`tatib, ijtimoiy hayotga boshqa tomonidan, ijtimoiy e`tibordan chetda qolgan xususiyatlarini anglab olib qarash imkoniyatini yaratadi. Shaxslararo konfliktlar uning ishtirokchilari ruhiy holatiga jiddiy ta`sir eta oladi.

Shular bilan bir qatorda konfliktning ijtimoiy organizmi xususiyatlaridan kelib chiqadigan konflikt funksiyalari ham mavjud.

Konfliktning bunday funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- 1.Ogohlantiruvchi funksiya.**
- 2.Axborot funksiyasi.**
- 3.Differensiatsiyalash funksiyasi.**
- 4.Dinamik funksiya.**
- 5.Informatsion funksiya.**
- 6.Din tavsifi tuzilishi funksiyasi.**

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, konflikt tabiiy hodisadir. Har bir inson konfliktlar bilan to`qnash kelishi aniq bo`lganligi sababli konfliktlar haqida keng bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, bugungi yoshlarga nafaqat yoshlarga balki, katta yoshdagি insonlarga ham konfliklar to`g`risida nazariy va amaliy bilimlar, amaliy ko`nikmalar hosil qilish, yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni jamiyatdagi o`z o`rnni va mavqeiga ega bo`lishida zarur ehtiyoj ekanligini anglagan holda, ana shunday bilimlarni targ`ib qilish bugungi kundagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Quchqorov J.S. Konfliktologiya, O`quv qo`llanma, “Durdon” nashriyoti. Buxoro-2023.
- 2.Karina V. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflikt Reconciliation. USA Canada.Routledge, 2013.
3. “Pedagogik Konfliktologiya” O`quv- Uslubiy Majmua, Namangan-2023.
- 4.Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. T.: Adabiyot uchqunlari, 2020.